

NASIHAT RUHIDAGI ASARLARDA MAVZU, G'OYA

Tursunmurodov Shohruh Uralovich

E-mail: shohruhtursunmurodov1994@gmail.com

GFA o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Sharq donishmand ijodkorlari inson ruhiyatini asrash, uning zamon va zamin bilan munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yish, Yaratgan zotning buyruqlariga amal qilish, xullas, insonday yashashni targ'ib qiluvchi, kerak bo'lsa, o'rgatuvchi asarlarni yaratib ketganlar. Ularning har birida insonda bo'lishi kerak fazilatlar ulug'lanib, yaqinlashtirilmasligi zarur bo'lgan qusurlar mazammat qilinadi. Xususan, "Kalila va Dimna"da roja belgilab bergan mavzu doirasida brahman bir rivoyat aytib beradi. Roja brahmandan ikki do'st orasida paydo bo'lgan dushmanlik haqidagi hikoyatdan so'ng, samimiy do'stlar, haqiqiy birodarlik borasida so'zlashni so'raydi. Unda ma'lum mavzu sarlavhaga chiqarilmasdan, bir mavzudagi hikoya asosida ikkinchi hikoya keltirilaveradi.*

***Kalit so'zlar:** mavzu, g'oya, bob, nasixat, asar, hikoya.*

"Kalila va Dimna" qoliplovchi hikoyat bo'lib, unda Dimnaning qilmishlarini ochish uchun aytilgan barcha hikoyatlar hikoya ichida hikoya tarzida keltirilgan. Xususan, "Chinkabutar, qarg'a, sichqon, toshbaqa va ohu", "Boyqush va qarg'a", "Maymun va toshbaqa", "Zohid va latcha", "Mushuk va kalamush", "Shahzoda va qubbara qush", "Sher va shoqol", "Ona sher, shoqol va ovchi", "Zohid va mehmon", "Bilor va brahmanlar", "Sayyoh va zargar", "Shahzoda va uning o'rtoqlari" haqidagi boblardan iborat. Har bir bob ichida ham bir necha hikoyatlar beriladi.

Asarda sher va ho'kiz misolida do'stlik, ishonch, sher timsolida yaxshiyomonni ajratolmaydigan rahbar, g'azab ustida xulosa chiqarib, keyin pushaymon bo'luvchi kishilar, Dimna misolida makkorlik, o'z manfaati yo'lida har qanday xunrezlikka boruvchi shaxslar timsoli, Kalila timsolida do'st tanlashda adashmaslik,

yomonga hamkor bo'lmalik, brahman timsolida donolik kabi tushunchalar o'z ifodasini topgan.

Asarda riyokorlik, yovuzlik, firibgarlik, manfaatparastlik, o'ylamay hukm chiqarmoq, shoshqaloqlik va boshqa illatlar qoralanib, bu fikrlar bir qancha hikoyatlar bilan dalillangan. Bu illatlarning ziddi bo'lgan samimiylik, ezgulik, yaxshilik, do'stlik, o'zaro ishonch kabi fazilatlar ulug'lanadi. Riyokorlar jazosini olib, yaxshilar mukofotlanadi.

Undagi Barzuya hakim haqidagi bob keyinchalik kiritilgan bo'lib, hakimning avval tib ilmi bilan shug'ullanib, bir qancha bemorlarni tuzatganligi, keyinchalik tib ilmi sog'likni abadiy saqlay olmasligini, u bilan hech qanday kasallikni birato'la davolab bo'lmashligini, biror kasallikni kelmaydigan qilib yo'qotib bo'lmashligini, davo bilan kasallik kamaymasligini anglab yetishi natijasida odamning yaratilishidan maqsad, nima uchun bu dunyo ne'matlari bir ro'yo ekanligi, bu olamning barcha shodliklari bebaqoligi-yu, inson bu dunyoda faqat azoblanishini aniqlash uchun ilohiyot ilmi bilan qiziqib qolganligi qayd etiladi.

Shundan so'ng hakim ilohiyot ilmi bilan shug'ullanish uchun avvali-yu oxiri yo'q bir yo'lga tushib, bir qancha xalqlarning diniy e'tiqodlari bilan tanishib, xoliq va maxluq, dunyoning oxiri haqida katta-katta tortishuvlardan so'ng ham ularning har biri o'zlarini haq, boshqalarni nohaq hisoblaganlaridan o'ziga ishonchli bo'lgan bir e'tiqodni topa olmaydi.

“Xullas, laqma bo'lganim uchun haqiqatni topa olmadim va o'z-o'zimga dedim: “Avlod-ajdodimning dinida qolib, ko'r-ko'rona unga rioya etsam, men faqat ajdodi jodugar bo'lgani uchun o'zini haqli hisoblagan jodugarga o'xshab qolaman. Agar yangidan din axtarishga boshlay desam, umr yetmaydi deb qo'rqaman, chunki o'limim yaqinlashib qolgan.

Taraddud ichida yashaydigan bo'lsam, fursatni qo'ldan berib, hech bir savob ish qila olmay, bu dunyodan o'tib ketaman. Shuning uchun men barcha dinlardan voz kechib, har narsadan ustun hisoblangan xayrli ishlar bilan masho'ul bo'lishga, aqlga sio'adigan ishlar bilan shug'ullanishga ahd qildim. Shundan beri men jonivorlarni urish, o'ldirishdan, odamlarni ranjitish, tahqir etishdan, ularga xiyonat

qilishdan voz kechdim, yolo'on so'zlash, bo'hton, o'iybatdan tilimni tiydim; xalqqa ozor berish va dunyo moliga hirs qo'yishdan, nayrangbozlik va jodugarlik kabi noloyiq ishlardan chekindim. Yomonlardan qochdim, yaxshilarga qo'shildim. To'g'rilik va tozalikka do'st bo'ldim. Chunki dunyoda to'g'rilikdan yaxshi do'st bo'lmaydi. To'g'rilik bilan har narsaga erishsa bo'ladi. Bu shunday davlatki, ulashganing bilan ozaymaydi, xarjlaganing bilan kamaymaydi. To'g'ri odam podshohdan ham qo'rqmaydi, o't, suv, vahshiy hayvonlar va boshqa zararli narsalar ham unga ziyon yetkaza olmaydi".¹

Barzuya hakim inson bu olamda mashaqqatlar ichida kun ko'rishini ta'kidlab "inson eng yaxshi sharoitda sog' va salomat yashadi. Lekin o'lim vaqti yetishganda nima bo'ladi? O'g'il-qiz, qarindosh-urug', oshna-og'ayni bilan vidolashmoq, achchiq o'lim sharbatin ichmoq zarur bo'lgan damda bu dunyoga bo'lgan muhabbat shami insonning qalbidan osonlik bilan o'chadi deysizmi? Shunday ekan, hech bir aqlli odam, insonlar bora-bora o'zlarining go'zal fazilatlarini yo'qotib, mol-dunyo uchun umr sarf etishlarini ravo ko'rmaydi. Chunki boqiy dunyoni foniy dunyoga, abadiylikni muvaqqat narsalarga almashtirish, musaffo va pok bir ruhni iflos va tuban bir badanga qurbon berish katta ayb va kechirib bo'lmaydigan xato hisoblanadi... Do'stlik zaiflashib, dushmanchilik kuchaygan, yaxshi odamlar tahqir etilib, azobu mashaqqat ichida, yomonlar esa hurmat qozonib, kayf-safo va rohatda yashamoqdalar. Hiyla va riyokorlik uyg'oq, vafo va sadoqat esa g'aflat uyqusida. Yolg'on - ozod, rostgo'ylik - mahbus, haq - mag'lub, nohaqlik - g'olib, zolim - haqli, mazlum -haqsiz, xasislik - hokim, qanoat - mahkum, qozi - g'addor, zohid - riyokor... Men dunyoning bu ishlarini o'ylab ko'rgach, butun mavjudotning sarvari va butun borliqning eng mukammal maxluqi bo'lgan odam o'z umrining qadrini bilmaydi, o'z hayotining najoti uchun kurashmaydi deb o'yladim. Men bu ahvolni kuzatib ko'p taajjublandim, diqqat bilan qarab, insonlarning baxtli yashashlariga mone bo'lgan narsa ularning mol to'plash kasaliga muhtalo bo'lib qolishi ekanligini ko'rdim, bu mol to'plash insonning totib ko'rish, hidlash, sezish kabi ehtiyojlarini

¹ "Kalila va Dimna". T.: "Yangi asr avlodi". 2010. 23-bet
www.pedagoglar.org

qondirish uchun qilayotganini bildim. Lekin bu sezgilarning hech biri maqsadga yetish uchun kifoya qilmaydi. Insonga mol-dunyo nasib bo'lsa-da, u bu dunyoda ham, oxiratda ham ziyondan boshqa bir narsa keltirmaydi”², - deydi.

Bu fikrlar islom dunyoqarashi asosida paydo bo'lgan tasavvuf ta'limoti, yassaviya tariqatiga juda hamohangdir. Shuning uchun ham bu o'lmas manba islom mamlakatlarida ham keng tarqaldi va bu xalqlarning sevimli kitoblariga aylandi, undagi mavzu va g'oya boshqa didaktik asarlarda davom ettirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E.A., Madvaliyev A.P., Odilov Y.R. O'zbek tilining katta imlo lug'ati. – Toshkent: “Kafolat print company” nashriyoti, 2023. – 648 b.

2. Begmatov E.A., Madvaliyev A.P. O'zbek tilining imlo lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 528 b.

3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси. – Тошкент: Университет. 1999. –116 б.

4. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. O'zbek tili me'yorlari(punktuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – 232 b.

5. “Kalila va Dimna”. T.: “Yangi asr avlodi”. 2010. 23-bet

6. “Қобуснома”. Кайковус Унсурулмаолий. Т.: “Истиқлол”. 1994. 27-б.

7. Алишер Навоий. «Хамса». танқидий матн. Нашрга тайерловчи П. Шамсиев. Тошкент. «ФАН», 1960 й

² Юқоридаги манба. 25-бет
www.pedagoglar.org